

QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OTA TARBIYASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

QAYIMOVA MAFTUNA TURSUNOVNA

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

Tel: + 998 93 592-78-79

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17293029>

Annotatsiya: Ushbu maqolada otalarning qiz farzand tarbiyasidagi o'rni va mas'uliyati tahlil qilinadi. Unda otaning oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi hamda jamiyat va mamlakat taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyati yoritib beriladi. Qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, ularning kelajakda barkamol shaxs sifatida shakllanishida otalarning ta'siri muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ota-qiz munosabatlari orqali qizlarning iroda, xulq-atvor va ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: oila, qizlar tarbiyasi, ota, ota-qiz munosabatlari, iroda, xulq, jamiyat, taraqqiyot.

ОСОБЕННОСТИ ОТЦОВСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ ДЕВОЧЕК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: В данной статье анализируется роль и ответственность отцов в воспитании дочерей. В ней освещается несравненная роль отца в укреплении семьи, воспитании детей и развитии общества и страны. Особое внимание уделяется воспитанию девочек, подчеркивается, что влияние отцов является важным фактором в формировании их как гармонично развитых личностей в будущем. Также раскрываются возможности развития воли, поведения и социальной активности девушек через отношения отца и дочери.

Ключевые слова: семья, воспитание дочерей, отец, отношения отца и дочери, воля, поведение, общество, прогресс.

SPECIFIC ASPECTS OF FATHER'S UPBRINGING IN PREPARING GIRLS FOR FAMILY LIFE

Abstract: This article analyzes the role and responsibility of fathers in raising daughters. It highlights the incomparable role of the father in strengthening the family, raising children, and the development of society and the country. Special attention is paid to the upbringing of girls, and it is emphasized that the influence of fathers is an important factor in their formation as harmoniously developed individuals in the future. Also, through father-daughter relationships, the possibilities of developing the will, behavior, and social activity of girls are revealed.

Keywords: family, raising daughters, father, father-daughter relationship, will, behavior, society, development.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda shakllanayotgan oilalarda qizlar tarbiyasi va kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qiz farzand borliqni ota ruhiyatida ko'radi, qiz uchun ota suyanuvchi tog'dir. Ota mehridan bebahra qolgan qiz o'zini erkin va xotirjam tuta olmaydi,

hayotda o'z o'rnini topishi ham qiyin kechadi. Shu sababdan qiz bolaning hayotida otaning o'zni katta va beqiyosdir. U qizning ruhiy olamini to'ldiruvchi eng asosiy obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i – otaning rolga alohida e'tibor qaratgan. U shunday deydi: "Agar oilada oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin." Jamiyatimizda ham oiladagi katta mas'uliyat otalar zimmasiga yuklanadi, muhim masalalarda ularning fikri asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Qiz bola tarbiyasi juda nozik masala sanaladi. Xalqimizda "Onasini ko'r, qizini ol" degan hikmat bor. Bu so'zlar zamirida chuqur ma'no mujassam. Oilada qiz bola onasining yurish-turishi, odobi, hunarmandligidan saboq oladi va ularni hayotga tadbiiq etishga intiladi. Shu boisdan yoshlikdan qizlarni ozodalikka, shirinsuxanlikka, kattalarga hurmatda bo'lishga o'rgatish lozim.

Turmushning qiyinchiliklari, ayniqsa, qaynona-kelin munosabatlari qizlar uchun sinovli davr bo'lishi mumkin. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bor. Onaning munosabati va uy tutishi qanday bo'lsa, bu xislatlar kelgusida qizga o'tadi – u ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin.

Payg'ambarimiz alayhissalom: "Jannat onalar oyog'i ostidadir" deb marhamat qilganlar. Shu boisdan har bir qiz bola kelgusida bo'lajak ona, mehribon va ardoqli uy bekasi sifatida tarbiyalanishi zarur. Biz qizlarimizga hayotning past-balandlarini, turmush qiyinchiliklarini yengib o'tishni, bardoshli va sabrli bo'lishni o'rgatishimiz shart.

ASOSIY QISM

Uzoq vaqt davomida "oilal" deganda asosan "onalar" tushunilgan. Buning natijasida otalar bolaning va uning onasining hayotida faqat moliyaviy yordam manbai sifatida ko'rilib, asta-sekin orqa fonda qolib ketgan. Bu nomutanosiblikni tuzatish uchun maktablar va jamiyatga asoslangan tashkilotlarda otalarning ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan to'siqlar haqida xabardorlikni oshirishimiz lozim.

Unutilgan odam – ota. Bola tarbiyasi haqida gap ochilganda mavzu odatda onalarga ulanib ketadi. Yashirin va ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan shaxs – bu otadir. Vaholanki, bola ota sababli dunyoga keladi. Duolarda "ota-onamni" degan ibora ishlatilishiga, maktabdagi majlislar "Ota-onalar majlisi" deb atalishiga qaramay, bugungi kunda ota mavzusi ko'pincha unutilmoqda. Ota faqat boquvchi sifatida tasavvur qilinadi.

Jamiyatda ota ko'pincha qo'rqituvchi, qo'pol, boladan uzoq turuvchi, erkalatmaydigan, qattiq jazolovchi, faqat gapining bajarilishini talab qiluvchi, bolaning barcha tashvishlarini ayoliga yuklab qo'yadigan inson sifatida qabul qilinmoqda. Eng achinarlisi, bu holatga ko'p otalarning o'zlari ham ko'nikib qolishgan.

Bunga sabab nima? Otalik haqidagi qarashlarimiz o'zgarib ketdimi yoki onalarning hukmronligi bunga yo'l bermayaptimi? Balki, onalar o'z bo'yinlariga ortiqcha yuk olib, nafaqat o'zlarini, balki bolalarini ham qiynayotgandir? Yoki otalarning bu boradagi bilim va tajribasi yetarli emasdir?

Har qanday holatda ham bu vaziyatda ham otalar, ham onalar, ham bolalar, ham jamiyat yutqazmoqda. Vaziyatni o'zgartirish vaqti allaqachon yetib kelgan. Atrofimizda kuzatilayotgan turli noxush hodisalar buning yaqqol dalilidir. Axir, farzandlarimiz oddiy ko'chat singari

parvarish va g'amxo'rliksiz o'sib ulg'ayishlari mumkin emas. Nahotki, mol-qo'yimizga ajratayotgan vaqtimizni farzandlarimizga ajrata olmasak?!

Ota nimaga javob beradi? Nahotki, otaning vazifasi faqat yedirish va ichirishdan iborat bo'lsa? Albatta, yo'q! Bugungi kunda jamiyat shunday xulosaga kelgan: "Tarbiya masalasida ota farzandga ona bera olmaydigan narsalarni beradi. Ota-onaning vazifalari turlicha bo'lib, ular bir-birini to'ldiradilar. Ota-onaning hamkorligiga bola shaxsiyatining to'g'ri shakllanishiga imkon beradi".

Bola onani o'zining bir bo'lagi deb his qilsa, otani hayotda yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatida biladi. Ona bola uchun mehr manbai bo'lsa, ota bola uchun hayot yo'lini ochib beruvchi kuchdir. Aynan ota bolaning dunyoni anglashini rag'batlantiruvchi, unga shakl beruvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ota faqat yo'l ko'rsatuvchi emas, balki nazorat qiluvchi hamdir. Ona mehri shartsiz va cheksiz bo'lsa, ota mehri talabchanlikka asoslangan. Ota ko'proq bolaning erishgan yutuqlariga qarab mehr bildiradi. Shuningdek, ota – qonun-qoidalar va intizom timsoli. Faqatgina otagina o'g'il bolaning erkak, qiz bolaning esa ayol sifatida yetilib borishiga ko'mak bera oladi [1].

Ko'pincha erkak kishilar "bolam 4-5 yoshga yetsin, gapga tushunadigan bo'lsin, keyin tarbiyalayman, ungacha onasi qaraydi" degan fikrda bo'lishadi. Aslida bu mutlaqo xato qarashdir. Qadim ajdodlarimiz ham rivoyat va naqlarda bunga alohida e'tibor qaratganlar. Farzand ko'rganini, uni qanday tarbiya qilish haqida maslahat so'ragan kishining bolasi qirq kunlik chaqaloq ekanini eshitgan donishmand shunday degan: "Afsus, tarbiyada qirq kunga kechikibsiz".

Bu rivoyat ko'pchilikka tanish bo'lsa kerak. Bizning davrimizga kelib, bu naql ilmiy jihatdan ham o'z tasdig'ini topmoqda. Chunki bolani tug'ilganidan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida yozilgan ko'plab kitoblar aynan shu hikmatning mazmunini ochib beradi. Rostini aytganda, "bola aqlini sal tanisa, keyin tarbiyalayman" deb o'ylaydigan otalar besh yilga emas, balki butun umrga kechikkan bo'ladilar.

Savol tug'iladi: kasb-hunarni qachondan boshlab o'rgatish kerak? Qadimgi hind hikoyatida aytilishicha, farzand besh yoshgacha podshohdek asrab-avaylanishi, besh yoshidan o'n besh yoshigacha esa quldek ishlatilishi, o'n besh yoshidan keyin esa do'stdek munosabat qilinishi lozim ekan.

Bu hikoyatdan shunday xulosa qilish mumkinki, ota-ona kasb-hunar o'rgatishni faqat ustoz zimmasiga tashlab qo'ymasdan, bu murakkab jarayonda o'z farzandiga do'st, hamfikir va suyanchiq bo'la olsagina, yaxshi natijalarga erishiladi. Ota-ona va ustoz hamkorligida qiyinchiliklarni yengib, kasb-korning nozik jihatlarini puxta egallagan qizlar usta hunarmandlar safidan joy olishga shubha yo'q.

Darhaqiqat, katta hayot ostonasida turgan qizlarimizga yaxshi hunar, insoniy fazilatlar va ma'naviy boylik bera olsak, bundan ulkan muddao bo'lmaydi.

Otagina farzandning qiyinchiliklar orqali toblanishini ta'minlaydi. Eng asosiysi, ota-bola munosabatlari samimiy, iliq va yaqin bo'lishidir.

Ota tufayli bola quyidagilarni o'rganadi [2]:

1. Tashabbuskorlik.
2. Hayot bosimiga qarshi tura olish.
3. Ruhiy bosiqlik.

4. So'ziga mas'uliyat bilan qarash.
5. Tushkunlikka berilmaslik.
6. Vaziyatdan chiqib keta olish.
7. Katta maqsadlar qo'ya bilish.
8. Vaziyatni o'z foydasiga burish.

Otaning tarbiyadagi rolini kuchaytirish uchun onalarga 5 ta tavsiya:

1. Jim qolmang, bolangizning muammolari haqida otasi bilan suhbatlashing. Qulay paytni topib, masalani muhokamaga qo'ying.
2. Bolani otasi bilan birgalikda ko'chaga olib chiqishga odatlantiring. Ota qarshilik qilsa, mehribonlik va sabr bilan ko'ndiring.
3. Bolaning muammolarini hal etishda otadan faol foydalaning.
4. Ba'zan bolani otasi yonida qoldiring, ular birga vaqt o'tkazsin.
5. Bolani tarbiyalashda otaning yordami siz uchun muhimligini qisqa va lo'nda qilib tez-tez eslatib turing [3].

Otalar o'z farzandlarining hayotga bo'lgan munosabatlari to'g'ri shakllanishiga mas'uldirlar. Bolalar go'daklik davridayoq ota-onasining mehrini his qilishga intiladilar. Shu bois ular ko'pincha: "Siz ham meni yaxshi ko'rasizmi?" — deb so'rashadi. Faqatgina "Ha, men seni yaxshi ko'raman" deyish bola uchun yetarli emas [4]. U ota-onasidan "sen eng go'zal, eng aqlli, yagona, betakrorsan" degan so'zlarni eshitishni istaydi.

Bola uchun mehr nafaqat so'zda, balki amalda ham zarur: bag'riga bosish, boshini silash, qo'lini siqib qo'yish yoki yelkasiga mehr bilan urib qo'yish kabi oddiy ishoralar orqali ota bolaga eng yaqin va eng qadrdon inson ekanligini bildirishi mumkin. Mehr, avvalo, ko'zda mujassam. Nigohlarning tez-tez uchrashishi hissiy kechinmalarni anglashda muhim vositadir. Bolani kichikligidan kattalarning ishonchi, madadi yoki noroziligini nigohlaridan sezishga o'rgatish zarur. Dono ota farzandi bilan muloqotda uning ko'zlariga qarab, qalbida nimalar kechayotganini his qiladi va shu asosda keyingi harakatlarini belgilaydi. Shunday qilib, u bola uchun mehrga boy, ishonchli "olamcha" yaratadi.

Otaning ulug'ligini ifodalovchi xislatlar:

- Ota tanbeh berganida farzandidan jirkanmaydi.
- Ota bosim qilganida, aslida farzandining o'sishini istaydi.
- Ota jim turganida, u farzandining kelajagi haqida o'ylaydi.
- Ota iqtisod qilganida, u o'z nafsini yengadi.
- Ota qattiqqo'l bo'lib qolsa, demak farzand uning ko'rsatmalariga amal qilmagan bo'ladi.
- Ota eshikni yopib olganida, ko'pincha u ko'z yosh to'kadi.

Farzand otaga nisbatan ovozi baliq, bundan yomon narsa yo'q. Farzand o'zini darbadar va sargardon his qilsa, demak, otasi undan g'azablangan bo'ladi. Agar ota to'shakka cho'zilib, sukut saqlasa, farzand ulkan suyanchiq tog'ini yo'qotib, bo'shliqqa yuz tutadi. Bu bo'shliqni esa hech qanday xotira to'ldira olmaydi. Shuning uchun farzandlar tinch va fayzli umr kechirishi uchun ularga otani hurmat qilish, ota rizoligiga erishish yo'llaridan saboq berish zarur. Zero, hayotning azaliy falsafasi ham shuni taqozo etadi.

Hikoyat: Bir solih farzand otasi bilan bir dasturxon ustida meva-cheva yeyishga ham qo'rqarkan. U doimo: "Otamning ko'zlari tushgan, endi yemoqchi bo'lib turgan mevasini

bilmay yeb qo'ysam, otamning ko'ngliga og'ir botib qolishi mumkin. Shunda men gunohkor bo'lib qolishimdan qo'rqaman", – der ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qizlarimizning seplarida ularning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan turli mavzulardagi kitoblar, ma'naviy manbalar (onalar tomonidan tikilgan kashtalar, buvilari tomonidan qoldirilgan taqinchoqlar) bo'lsa, bu juda yaxshi bo'lur edi. Shu sababli o'zbek oilalarida qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- qizlarga yoshligidanoq o'zbek urf-odatlarini singdirib borish;
- avvalo ona, qolaversa, ota qiziga har tomonlama o'rnak va namuna bo'lishi;
- oilada ayolning o'rni, vazifasi, burchi va huquqlarini tushuntirib borish;
- ayollar zimmasidagi yumushlarni puxta o'rgatish;
- qizlarning savollariga va tushunmagan masalalariga shoshilmay, mukammal javob berish;
- qarindosh-urug', mahalla-ko'yda obro'-e'tibor qozongan ayollar va qizlarni namuna qilib ko'rsatish.

Xulosa qilib aytganda, qiz bola hayotida qarama-qarshi jins vakiliga qanday munosabatda bo'lishi, ko'p jihatdan otasining unga nisbatan munosabatiga bog'liq. Qizlar – millat ko'zgusi. Kelajak avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida otalarning roli beqiyosdir. Chunki ota-onaning oqilona ta'lim-tarbiyasi farzandlarda o'ziga ishonch va mustahkam iroda shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharipov U. Asl otalar kitobi. – Toshkent: Yosh kuch nashr, 2021. – B. 14-15.
2. Nazarov S. Yaxshi otalar kitobi. – Toshkent: Yosh kuch nashr, 2021. – B. 12.
3. Nazimo A.; tarj. Teshaboy Ziyoyev. Qizlar tarbiyasi. – Toshkent: Yosh kuch nashr, 1994. – B. 22-23.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi avlod, 2018. – B. 35-36.
5. Ergasheva O.N. O'quvchi-qizlar tarbiyasida sharqona tarbiyaning o'rni // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – Termiz, 2021. – №1, Issue 8.